

Jo‘rayeva Moxinur Najmiddin qizi

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Tafakkurning mantiqiy kategoriyalari va tilning tuzilishi munosabatlari muammolarini muhokama qilishda tilshunoslik va falsafa tarixida o‘z nuqtai nazarlaridan fikr bildirmagan birorta ham maktab bo‘lmadi. V.Gumboldtdan tortib to hozirgi etnolingvistlargacha olimlar tillarning farqlari faktlarini va ularning inson va jamiyat ruhiy olami bilan o‘zaro munosabatlarini tushuntiradigan farazlarni ilgari surishga intildilar va intilishni davom ettirmoqdalar.

Olam manzarasida “yosh” tushunchasini obyektiv ravishda “zamon” kategoriyasidan ajratib bo‘lmaydi deb hisoblanadi. Vaqt fenomeni insonning olam manzarasida qiyos qilib bo‘lmaydigan darajada ishtirok etadi: vaqt sezib bo‘ladigandir, tabiiy jihatdan turli xususiyatlar va holatlarning o‘zgarishlari ko‘rinishida mavjud bo‘ladi. Aynan tabiiy vaqtning bo‘laklari sifatida “yosh”, ya‘ni muhim o‘zgarishlarning davrlari qayd qilinadi va insonning zamondagi o‘rni belgilanadi. Shu sababli “yosh” so‘zi o‘zining hamma hozirgi ma‘nolarida insoniyatning rivojlanishi davomida olingan tajriba va bilimlarni jamlaydi va til sohiblari tomonidan “zamon” fenomenini tushunishga bog‘liqdir. Mos ravishda, “yosh” tushunchasi ancha umumiy bo‘lgan “zamon” kategoriyasi doirasiga kiradi va olam manzarasining bir parchasini aks ettiradi, ayni paytda “yosh” so‘zi bu parchaning verballashuvidir.

Yu.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, A.Vejbitskaya, A.A.Zaliznyak, I.B.Levontina, U.V.Raxilina, Ye.V.Urison, A.D.Shmelev, Ye.S.Yakovleva kabi mualliflarning ishlarida alohida o‘ziga xos lingvistik konseptlar ajratib ko‘rsatiladi, ular mazkur til uchun xosdir va ikkita xususiyatga egadir: ular mazkur til va madaniyat uchun eng muhim bo‘lgan g‘oyalarni ifoda qiladilar va shu tariqa mazkur olam manzarasini tushunish uchun “hal qiluvchi” bo‘lib qoladilar.

“Zamon” kategoriyasi tasarrufiga kiruvchi “yosh” tushunchasi ham olamning lisoniy manzarasida muhim kategoriya sifatida alohida ajralib turadi. T.V.Sivyanning ta‘kidlashicha, zamon kategoriyasini ifodalovchi til birliklari tarkibidan mazmun planida olamning lisoniy manzarasi tashkil topadi. Bular bir necha bir-biriga zid ma‘noli leksik oppozitsiyalar to‘plamidan iborat bo‘lib, mos ravishda ijobiy va salbiy ma‘nolarga ega bo‘lgan juftliklarni o‘z ichiga oladi. Bu oppozitsiyalar vaqtning tarkibi (kun/tun, yorug‘lik/qorong‘ilik, yoz/qish va h.k.) va turli ahamiyatdagi ijtimoiy kategoriyalar - yosh, geneologik, ijtimoiy (erkaklarga oid/xotin-qizlarga oid, katta/kichik, yosh/qari va h.k) kabilar bilan bog‘liq.

T.V.Sivyana zamon kategoriyalarini olamning antropotsentrik manzarasiga kiritadi. Hisoblash nuqtasi sifatida immanent, ya‘ni hodisaning ichki xususiyatiga xos bo‘lgan, uning tabiatidan kelib chiqadigan vaqt emas, balki insonning vaqtdagi o‘rni olinadi.

Vaqt oppozitsiyalari yorug‘lik / qorong‘ilik, kun / tun, shuningdek, “yil”, “asr” va “davr” tushunchalarini konseptuallashtirish insonga berilgan muddatni tushunishga asoslangan. Bunga asos bor: olamda inson adekvat mo‘ljal olish uchun o‘zini mana shu daqiqada, mana shu joyda anglashi kerak. Inson uchun asosiy vaqt birligi sifatida (nikoh orqali tug‘ilgandan tortib o‘lguniga qadar uning hayoti davri) o‘z asri bo‘lsa, vaqt ottenkasi “chaqaloq”, “yosh yigit, o‘spirin / voyaga yetgan qiz”, “erkak / ayol”, “chol / kampir”, “kuyov / kelin”, er /xotin”, “beva kishi / beva ayol” kabi leksemalarda namoyon bo‘ladi.

Har qanday tilda olam manzarasi tasavvurining antropotsentrik xarakteri uning tarkibiga kiruvchi til birliklari tarkibini qiyoslash hamda verballashuvining o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Akhrorova Ruzikhon Usmanovna. “Yosh tushunchasi lingvistik talqini”. Innovative Development in Educational Activities, 2023. B.187-190.
2. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. Naming of the “age” concept. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022/10/20. –P. 178-182.
3. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. Essay writing terms. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2022/12/22. –P. 107-109.
4. Циньян Т.В. Модель мира и её лингвистические основы. – М.: УРСС, 2005. – С. 15.